



## QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH MUSTAQILLIK YILLARIDA.

*Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 3- bosqich talabasi*

*Murtazayeva Fotima*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining qatag'onga uchrashi hamda mustaqillik yillarida jadidlar xotirasi va jadid adabiyotining qayta tiklanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qatag'on siyosati, Islom Karimov, Shavkat Mirziyoyev, qatag'on qurbanlari muzeyi, oqlash siyosati.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma'naviy hayotida yangi – uyg'onish, o'zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma'muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto'g'ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo'lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug'ildi. Tabiiyki, bu jarayon oson kechmadi...1 XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi. Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Behbudi, Abduqodir Shakuriy, Munavarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o'nlab ziyorilar rahnamolik qildilar. Jadidlar guruhiy, ijtimoiy va hududiy birlik to'g'risidagi masalalarni ko'tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongni XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar.<sup>2</sup>

4-oktabr Turrkiston milliy-ozodlik harakati va faollari ommaviy qatag'on qilingan kun. 1938-yilning shu kunida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, yana faoliyat aksariyat jamoatchilikka noma'lum qolayotgan



yuzdan oshiq o'zbek ziyolilari o'z vatanining poytaxti Toshkentda kommunistlar rejimi rahbari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlangan. Qatl etilganlarning barchasi milliy uyg'onish harakati faollari, jadidchilar edi. Turkistonni bosqindan, qoloqlik botqo'g'idan, arosatdan ozod qilishga bel bog'lagan, buni qurolli qo'zg'alon emas, o'qish, ta'lif sifati bilangina amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparvarlar "xalq dushmani" tamg'asi ostida otuvga hukm qilindi. Inqirozdagi Turkiston umidlari sifatida siyosiy maydonga chiqqan bu oydinlarning xiyonatkorona qatl etilgani uzoq yillar millatdan yashirildi. Mustaqillikka kelib marhum prezident Islom Karimov jadidlar xotirasini abadiylashtirdi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi. Ammo bundan qat'i nazar, jadidlar merosiga nisbatan xovotir tuzumni tark etmadni, ular adabiyoti mamlakatda targ'ib etilmadi, jadidlar g'oyasi qabul qilinmadni.<sup>3</sup> Muzey O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-maydagi „Qatag'on qurbonlarini xotirlash kunini belgilash to'g'risida“gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Qatag'on qurbonlarini xotirlash kunini belgilash to'g'risida“gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan. 2002-yil 8-noyabr „Qatag'on qurbonlari xotirasiga“ muzeyining ahamiyatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 5-maydagi qaroriga muvofiq muzey ekspozitsiyasi yangilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovichning Mirziyoyev 2017-yil 31-avgust kuni Qatag'on qurbonlarini xotirlash kuni munosabati bilan muzeyga tashrifi chog'ida bildirgan taklif va mulohazalari Vazirlar Mahkamasi qarorining asosini tashkil etadi. „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qatag'on qurbonlari xotirasiga davlat muzeyini va oliy ta'lif muassasalari huzurida Qatag'on qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan viloyat muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmonni qabul qildi. Mazkur qarorga asosan muzey O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi departamenti tasarrufiga o'tkazildi hamda uning faoliyatini kengaytirildi va takomillashtirildi.<sup>4</sup>



Muzeyning asosiy vazifalariga qatag‘onchilik siyosatining paydo bo‘lish sabablari va oqibatlarini tadqiq etish va uni mamlakatimiz tarixining tarkibiy qismi sifatida aks ettirish, mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi otabobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularni yod etish bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish va targ‘ib etish, qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini o‘rganish, ilmiy-ijodiy merosini to‘plash, nashrga tayyorlash va chop etish, muzey fondlari va ekspozitsiyalarini mamlakatimiz hamda xorijdagi turli hujjatlar va boshqalar eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borish kiradi. Muzey „Shahidlar xotirasi“ xayriya jamg‘armasi bilan hamkorlikda „Qishloq fojiasi“ (R. Shamsutdinov), „Abdulla Qodiriy“ (S. Mirvaliyev), „Cho‘lpon“ (N. Karimov) tadqiqotlari, Munavvarqori Abdurashidxonov va Botuning „Tanlangan asarlar“ini nashr etgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston hujjatli va badiiy filmlar kinostudiysi hamda "O‘zbekteofilm" studiyasi bilan hamkorlikda „Barhayot xotira“, „Armonli yillar ko‘zgusi“, „Fidoyi olim“, „Mirtemir“ singari hujjatli filmlar yaratgan. Muzey binosi mamlakatimizning noyob me’moriy inshootlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov tashabbusi va g‘oyasi asosida loyihalangan va bunyod etilgan (2002-yil, me’mori A.Turdiyev va boshqalar). Bino an’anaviy me’morlik uslubi (ayvon, gumbaz, peshayvon, ravoq va boshqalar)da qurilib, milliy bezaklar bilan ziynatlangan. Muzey binosi murabba tarhli (20x20 m), balandligi 20 m, gumbazli (balandligi 6,2 m, diametri 5,8 m; feruza rang gumbazi „Shahidlar xotirasi“ yodgorlik majmuidagi ayvon gumbazi bilan uyg‘un), bino atrofi kengligi 4 m bo‘lgan ochiq ayvon bilan o‘ralgan, undagi 28 ta ustun va to‘sinlar hamda 4 tarafdagи kirish zinapoyalari binoga o‘ziga xos salobat baxsh etadi. Binoning pastki qismida texnikmuhandislik, ma’muriyat va boshqalar qo‘sishimcha xonalar joylashgan, ular ko‘rgazma zali bilan maxsus yo‘lak va zinapoyalalar orqali uzviy bog‘lanadi. Bino bezagida marmar, haqiq, granit



toshlar, rangli koshinlardan foydalanilgan, yog‘och o‘ymakorligi (A. Abdullayev, S. Rahmatullayev, N. Sohibnazarov va boshqalar), ganchkorlik (M. Murodov va boshqalar), naqqoshlik (A. Karimov va boshqalar), koshinkorlik (M. Mamajonov, R. Muhammadjonov, M. Shedrin, V. Gan va boshqalar), gumbazning ichki bezagida murakkab iroqi muqarnas mahorat bilan qo‘llanilgan. Binoni barpo etishda Toshkent shahri me’morlik bosh boshqarmasi hamda „Usto“ ijodiy ishlab chiqarish uyushmasi ustalari faol ishtirok etgan.

Oliy sud raisi o‘rnbosari Ikrom Muslimovning ta’kidlashicha, prezidentning 2020 yil 8 oktabrdagi «Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika ishchi guruhi va qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlangan. Shunga asosan, qatag‘on qurbonlarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko‘lamini kengaytirish uchun mas’ullarga vazirlik va idoralarning idoraviy arxivlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Ta’kidlanishicha, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida aniqlangan, ayrim sabablarga ko‘ra reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag‘on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan takliflar kiritish belgilangan. Shu munosabat bilan qatag‘on qurbonlarining reabilitatsiyasi bo‘yicha masala o‘rganib chiqilgan hamda Respublika ishchi guruhiga takliflar ko‘rib chiqish uchun yuborilgan.<sup>5</sup> Ma’lum qilinishicha, Oliy sudga 2022 yilning 12 dekabr kuni 173 nafar shaxsga nisbatan 4 ta jinoyat ishi kelib tushib, ishchi guruh tomonidan o‘rganib chiqilgan.

Mazkur jinoyat ishlarida sud majlisi bayonnomasi yoki sud hujjatlari (hukm yoki boshqacha qaror) mavjud emasligi, ishlarda faqatgina OGPUning uchlik majlisi bayonnomasidan ko‘chirma borligi aniqlangan.



### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Baxtiyor HASANOV, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi direktori  
Manba: “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2023-yil 31-avgust, 177-s
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, N.Oblomurodov, O’zbekiston tarixi I qism, Toshkent 2002, 249-254-s
3. <https://blogs.voanews.com/uzbek/vatan-manzaralari/2020/10/06/ozbekistondajidlarga-etibor-oshdimi/>
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qatag%CA%BBon\\_qurbanlari\\_xotirasi\\_muzeyi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qatag%CA%BBon_qurbanlari_xotirasi_muzeyi)
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/19/justify>